

MODERNISTIK ADABIYOTDAGI FAOL ATAMALAR TASNIFI

Uralova Gulhayo Bahodir qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi
fakulteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi Magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada modernizm atamasining mazmuniga turlicha yondashuvlar hamda modernistik adabiyotdagi faol atamalar ta'rifi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: neotraditsionalizm, pessimizm, irratsionalizm, individualizm, neomodernizm.

Modernizm termini yillar mobaynida nazariy hamda tarixiy- adabiy silsilaga ega bo'lgan atama hisoblanadi. Mazkur atama turli ma'noda qo'llaniladi: adabiy jarayonning ma'lum bosqichini belgilash uchun, individual ijodiy-badiiy ong turi sifatida. Ushbu hodisaning xronologik doirasi jahon adabiyotshunosligida modernizm bilan bog'liq atamalar, yo'nalishlar, unga oid adabiy matnlar majmuasi, ramziylik, postsimvolizm, maktablarning vujudga kelish omillarini belgilab beradi. Modernizm turlarining "yuqori", "klassik", "xalqaro", "shizmmatik" ta'riflari ilmiy foydalanishga kiritildi. Binobarin, "neotraditsionalizm" atamasidan modernizmning faol atamasi sifatida foydalanish keng tarqaldi.{1} Mazkur atama modernizm bilan sinonim bo'lib, "zamonaviy" degan ma'noni bildiradi.

Muhammadjon Xolbekov o'zining "XX asr modern adabiyoti manzaralari" nomli maqolalar to'plamida modernizm atamasiga quyidagicha izoh kiritadi: Modernizm G'arbiy Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sahnaga chiqdi. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, modernizm – bu zamonaviy san'at va adabiyotdagi yangi uslubiy ta'limot bo'lib, modern (modern) so'zining o'zi ham yangi va zamonaviy ma'nolarini anglatadi. Uning adabiyot va san'atda namoyon bo'lishi aslo tasodifiy emasdi. Ta'kidlash joizki, XX asr boshi falsafasida pessimizm , irratsionalizm va individualizm kabi yo'nalishlar ustunlik qila boshladi. Dunyoga yangicha qarash, har doimgidek, faylasuf va yozuvchilar zimmasiga tushdi. Mashhur faylasuf va adib, Nobel mukofoti laureati (1927) Anri Bergson (Henri Bergson, 1859-1941) yaratgan psixologik-falsafiy nazariyada inson aqlga emas, balki ichki hissiyotga tayangan holda mushohada qila bilsagina hodisalar tabiatini tushunaolishi mumkinligini asoslab berdi. Ya'ni keng ma'noda dunyonи bilish nazariyasini tushunishda va tor ma'noda badiiy ijodning o'ziga xos xususiyatlarini anglashda aql-idrok emas, balki insondagi ichki his-tuyg'u katta ahamiyat kasb etadi, degan ta'limotni ilgari surdi. Pessimizm -umidsizlik, kelajakka ishonchsizlik, ruhiy tushkunlik.

Irratsionalizm-qonun-qoidalardan holi, aql yetmaydigan, aqldan tashqari, mantiqiy bilib bo'lmaydigan hodisa. Individualizm- (fasafada) shaxsiyatparastlik, shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan yuqori qo'yish, o'zim bo'lay deguvchi dunyoqarash. Modernizm – bu umumiylar dunyoqarashga ega bo'lgan bir qator adabiyot va san'at yo'nalishlari majmuasi bo'lib, u hamma ko'nikib qolgan, an'anaviy tus olgan badiiy obrazlarning ayrim ijobiy va salbiy xislatlarini alohida ajratib ta'riflagan holda, qolgan jihatlarni parchalarga bo'lib tashladi. Masalan, san'atkorning bevosita obraz mazmuniga, uning asl mohiyatiga me'yordan oshiq diqqat-e'tibor qaratganligi naturalizm nomini oldi; obrazning favqulodda bo'rttirib tasvirlangan holati abstraktsionizm qonuniyatiga asos bo'ldi, jo'shqin va hayajonli his-tuyg'ular bilan to'yintirib ifodalanganligi esa ekspressionizmga aylandi; ortiqcha mazmundorlik va ko'p ma'nolikning kashf qilinishi bevosita syurrealizmga taalluqli bo'lib qoldi. Modernizm tarafdarlari o'zlarini yashayotgan jamiyatning ibridoibetartibligi, bugungi kunning chalkash va mazmunsizligi, zamonaning o'ta tartibsizligi, kishilar ongidagi alg'ov-dalg'ov fikr-xayollar insonning yolg'izlik his-tuyg'usi kuchayishiga, keskinlashuviga olib keldi deb hisobladilar. Sababi, tajovuzkorlik va adovat ruhi bilan sug'orilgan voqelik shaxsni yengilmaslikka, hamma vaqt g'olib chiqishiga undaydi, o'zgalar unga bas kela olmasligi, undan ustun bo'laolmasligi, unga kuchi yetmasligi bilan ojiz bo'lib qoladilar. {2}

Vaqt qamrovi hodisalar va kontekstlar diapazoni qanchalik keng bo'lsa, modernizm bilan bog'liq xronomantiqiylik ham shunchalar ahamiyatlidir. "Adabiy ensiklopediyada atamalar va tushunchalar (2001) monografiyasida A. M. Zverev modernizm atamasi negizida uch asosiy ma'no yotganligini ta'kidlab o'tadi. Bular: yo'nalish, mavzu va usul. 1920-yildan boshlab jahon adabiyotshunosligida neomodernizm atamasi paydo bo'ldi. Neomodernizm – zamonaviy san'atdagi yo'nalish bo'lib, postmodernizmdan keyin tanqidchilar uni keskin tanqid qilishiga ham qaramay, modernizmga asoslangan rivojlangan falsafiy pozitsiya hisoblanadi. Modernizmning akmeizm, simvolizm, dadaizm, futurizm, imajinizm, syurrealizm, ekspressionizm, fovizm, shoizm, suprematism, absurd kabi oqimlari turli ijtimoiy-ma'naviy qalqishlar davrida yuzaga kelib, badiiy adabiyotda yorqin namoyon bo'lgan yo'nalishlardir. Ta'kidlash kerakki, agar oldinlari bu xildagi ijtimoiy-axloqiy silkinishlar bashariyat uchun har zamonda yuz beradigan tasodifiy holat hisoblangan bo'lsa, endilikda tobora doimiylilik kasb etib bormoqda.

Modernistik hissiy-intellektual yondashuvga ko'ra hayot hamisha tartibsiz va beboshoq; inson tirikligining tiyiqsiz va tayinsizligi odamning hayotdan o'z o'rmini topolmay yolg'izlanib qolishiga olib keladi; insonning hayoti yechimi hech qachon topilmaydigan ziddiyatlardan iboratdir. Bunday kayfiyat modernchi ijodkorlarda san'at hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, unga tartib va ma'no baxsh eta olmaydi degan umidsiz to'xtam shakllanishiga

sabab bo'ladi. San'at san'at uchun" chaqirig'i modernistik yo'nalishdagi barcha adabiy oqimlarning asosiy shiori ekanining boisi shunda. Hamonki, san'at asari ijtimoiy borliqni o'zgartirish va unga muayyan tartib berishga qodir emas ekan, hayot va uning muammolarini aks ettirishdan ma'no yo'q deb qaraldi. Shuning uchun modernizmda ko'proq badiiy yaratiqning ifodaviy jihatlariga e'tibor qaratilib, ob'ektiv olam hodisalari va unda qatnashadigan timsollarni tasvirlashdan ko'ra ob'ektiv dunyo to'g'risidagi sub'ektiv taassurotlarni, ongosti impulslarning o'yinlarini aks ettirish muhimroq sanaladi. Bu xil yondashuv san'at va adabiyotga hech kim va hech narsa oldida burchli bo'limgan idtimoiy-estetik fenomen tarzida qarash imkonini beradi.

Modernizm o'zining ilmiy-nazariy asosi sifatida F. Nitsshening menchilik (individualistik) falsafasiga tayangan bo'lsa, badiiy ijod mohiyatini tushunish va izohlashda Z. Freydning psixoanalitik qarashlariga suyanadi.

F. Nitsshening menchilik falsafasiga ko'ra jamiyat hamisha shaxsga qarshi turadi, individ va uning manfaatlari jamiyat tomonidan doim kamsitiladi, axloq va qonun ko'pchilik tomonidan alohida shaxsning erkini zanjirband qilish uchun o'ylab topilgan ijtimoiy-etik bo'g'ovlardir. Demak, jamiyat mavjudligining o'zi bilan alohida shaxsning erkiga daxl qiladi, uning o'ylari, tuyg'ulari va amallarini cheklashga urinadi. Holbuki, odam hech qanday sababga ko'ra o'z istaklarini jilovlamasiligi kerak. Insonni suyish, ya'ni gumanizm shuni taqozo etadi. Insonparvarlik darajasi shaxsga berilgan erk miqyosi bilan o'chanadi. {3}

Bundan ko'rinish turibdiki, modernizm badiiy hodisa sifatida afsona yoki illyustratsiya emas, balki keng qamrovli terminligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V. E. Xalizev Adabiyot nazariyasi: darslik. 2000–yil.
2. Xolbekov M. XX asr modern adabiyot manzaralari: maqolalar to'plami. 2014–yil.
3. Yo'ldoshev Q. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar. 2018–yil.